

NAVOIY VILOYATIDA OLIY TOIFALI ILMIY VA ILMIY PEDAGOGIK KADRLARNI TAYYORLASH



Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan extiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim, kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti, mustaqil izlanuvchilik) doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi.

2018 o'quv yilida falsafa doktori darajasi izlanuvchilari soni Navoiy viloyat bo'yicha 24 kishini tashkil qildi. 14 nafar falsafa doktori darajasi izlanuvchilari qabul qilinib, 3 nafar falsafa doktori darajasi izlanuvchilari bitirdi.

2018 yilda oily o'quv yurtidan keying ta'lim tizimining asosiy ko'rsatkichlari

<i>tayanch doktorantura</i>							
Tayanch doktorantura institutlari mavjud tashkilotlar soni	Qabul qilingan falsafa doktori darajasi izlanuvchilari	Ulardan ayollar	2018 o'quv yilida falsafa doktori darajasi izlanuvchilari soni	Ulardan ayollar	Bitirgan falsafa doktori darajasi izlanuvchilari	Ulardan ayollar	Jami bitiruvchilar sonidan dissertatsiya himoya qilganlar
3	14	3	24	7	3	1	1
<i>doktorantura</i>							
Doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni	Qabul qilingan fan doktori darajasi izlanuvchilari	Ulardan ayollar	2018 o'quv yilida fan doktori darajasi izlanuvchilari soni	Ulardan ayollar	Bitirgan fan doktori darajasi izlanuvchilari	Ulardan ayollar	Jami bitiruvchilar sonidan dissertatsiya himoya qilganlar
1	-	-	1	-	-	-	-

2019 yil 1 yanvar holatiga yoshi bo'yich tayanch doktorantura institutlari izlanuvchilar soni, kishi


Jami	24 yosh va undan kichik	25 yosh	26 yosh	27 yosh	28 yosh	29 yosh	30 yosh	31 yosh	32 yosh	33 yosh	34 yosh	35-39 yosh	40 yosh va undan katta
24	-	-	1	2	4	3	3	1	3	2	1	3	1

2018 yilda tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmi, mln. so'm


Jami	ilmiy tadqiqotlar (ilmiy-tadqiqot ishlari)	shu jumladan:	ilmiy-texnik xizmatlar
		fundamental tadqiqotlar	
29 842,0	5 466,8	56,4	24 375,2

2018 yilda tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmining katta qismini ilmiy-texnik xizmatlar hajmi tashkil etgan, jami hajmning 81,7 foizi.

2018 yilda tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmi, foizda




**2018 yilda fan sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik
ishlanmalariga xarajatlar, mln. so'm**



2018 yilda fan sohalari bo'yicha tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarning asosiy qismi texnika (69,1 foiz) va ijtimoiy (14,3 foiz) fanlariga qilingan xarajatlar tashkil etdi. Jami xarajatlardan tabiiy fanlariga 9 foiz, gumanitar fanlariga 6,2 foiz, 1,4 foiz tibbiyot fanlariga to'g'ri keladi.

**2018 yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga
xarajatlarni fan sohalari bo'yicha ulushi, foizda**



- Texnika fanlari
- Ijtimoiy fanlar
- Tabiiy fanlar
- Gumanitar fanlar
- Tibbiyot fanlari

2018 yilda tashkilotlarning o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarni moliyalashtirish manbaalari, mln. so'm


	Jami	Shu jumladan:						
		jami budjet mablag'- lari	ulardan:		budjetdan tashqari fondlar mablag'- lari	o'z mablag'- lari	buyurtmachi mablag'lari	xorijiy manbalar mablag'lari
			respublika budjeti mablag'- lari	mahalliy budjeti mablag'- lari				
<i>Navoiy viloyati</i>	38 216,2	13 788,2	13 625,7	162,5	-	24 428,0	-	-

2018 yilda davlat sektoriga tegishli tashkilotlarda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga qilingan xarajatlarning asosiy qismi texnika fanlar hissasiga (jami xarajatlarning 98,0 foizi), tadbirkorlik sektorida texnika fanlari hissasiga (100,0 foiz), oliy ta'lim hamda xususiy notijorat sektorlarida ijtimoiy fanlar hissasiga (mos ravishda 41,0 va 100,0 foiz) to'g'ri keladi.

2018 yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajaragan ilmiy xodimlar

	Jami (o'rindosh- larsiz)	Shu jumladan:				Pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ilmiy tadqiqot va tajriba- konstruktorlik ishlanmalarni bajaruvchi ilmiy pedagogik xodimlar soni
		tadqiqotchi mutaxassislar	texniklar	yordamchi xodimlar	boshqalar	
<i>Navoiy viloyati</i>	682	207	30	320	125	568

**2018 yilda ilmiy va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan
ilmiy xodimlarning jamiga nisbatan ulushi, foizda**



2018 yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan, shuningdek oily ta'lim muassasalarining pedagogic faoliyat bilan bir qatorda ilmiy izlanishlarni bajargan ilmiy-pedagogic xodimlarini qo'shgan holda 775 kishini tashkil etgan. Ulardan tadqiqotchi-mutaxassislarning 27,5 foizi (213 nafar) tabiiy fanlar sohasida, 27,5 foizi (213 nafar) gumanitar fanlar sohasida, 18,7 foizi (145 nafar) ijtimoiy fanlar sohasida, 25,3 foizi (196 nafar) texnika, qolgan 1,0 foizi (8 nafar) tibbiyot fanlari sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.